

**2023
2024**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI

**O'QUV YILIDA
UMUMTA'LIM
MAKTABLARINING 9-SINF
O'QUVCHILARI UCHUN**

O'ZBEK TILI

FANIDAN YAKUNIY ATTESTATSIYASINI O'TKAZISH
BO'YICHA METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR



O‘zbek tili 9-sinf

2023-2024-o‘quv yilida umumiyl o‘rta ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 9-sinflarida o‘zbek tili fanidan yakuniy imtihon ushbu tavsiya etilgan bilet savollari asosida o‘tkaziladi. Berilgan topshiriqlardan yakuniy davlat attestatsiyasi o‘tkazilishi belgilangan kundan bir kun oldin, ishchi guruh tomonidan qur’a tashlash yo‘li bilan 2 ta variant tuzilib, e‘lon qilinadi. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 9-sinf o‘quvchilariga imtihonda berilgan topshiriqlar bo‘yicha 120 daqiqa vaqt beriladi.

9-sinflar uchun Yakuniy davlat attestatsiyasi materiallari tayyorlanish jarayonida o‘zbek tili fanidan 8-9-sinflarda o‘tilgan mavzular asos qilib olindi. Tuzilgan 10 ta variantning har biri 3 ta savoldan iborat. Savollarning 1tasi o‘qish savodxonligi, 1tasi mulohaza qilish, 1tasi qo‘llashga oid.

Har bir variantda darslik va boshqa manbalardan olingan nutqiy mavzuga oid matnlar berilgan.

1-savol: o‘quvchi berilgan matnni o‘qishi, matn asosida berilgan savollarga javob bera olishi, matn asosida olingan xulosalarni hayotiy misollar bilan izohlashi; (o‘qish savodxonligiga oid – 30 ball)

2-savol: matn asosida tuzilgan savollarga javob berish; (mulohazaga oid – 40 ball)

3-savol: ajratilgan gap yoki so‘zlarni ona tiliga tarjima qilishi; so‘zlarning leksik xususiyatlarini (bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlar, omonim, sinonim, antonim, paronim, iboralar, tasviriy ifoda) ajrata olishi; (qo‘llashga oid – 30 ball)

O‘quvchilarning yozma javoblari 100ballik tizim asosida baholanadi:

0-29% - “qoniqarsiz”

30-70% - “qoniqarli”

71-85% - “yaxshi”

86-100% - “a’lo”

**9-sinf bitiruvchilariga o‘zbek tili fanidan Yakuniy davlat attestatsiyasi uchun
tuzilgan savol-topshiriqlar**

BAHOLASH MEZONI

| Savol raqami | Savol darsasi | Jami ball | ball | Daraja tavsiflovchisi |
|---------------------|----------------------|------------------|-------------|--|
| 1 | O‘qish savodxonligi | 30 | 23-30 | Berilgan topshiriqqa kreativ yondashib, chuqur mulohaza yuritib, fikrlarini o‘zbek tilida erkin bayon eta olsa, bugungi kun bilan bog‘lab misollar keltirib bera olsa; |
| | | | 15-22 | Topshiriqda berilgan mavzu asosida fikr bildira olsa, bugungi kun bilan bog‘lab misollar keltirib bera olsa; |
| | | | 8-14 | Berilgan topshiriqqa minimal darajada yondashib, o‘z fikrlarini o‘zbek tilida ifodalay olishga qiyalsa, qisman misollar keltirib bera olsa; |
| | | | 1-7 | Berilgan mavzu asosida fikrlarini bayon qilishda qiyalsa, qisman javob bera olsa; |
| 2 | Mulohaza | 40 | 40 | Matn asosida tuzilgan moslikni topishga oid test savollarining ikkitasiga to‘liq va to‘g‘ri javob bersa |
| | | | 20 | Matn asosida tuzilgan moslikni topishga oid test savollarining bittasiga to‘liq va to‘g‘ri javob bersa |
| | | | 10 | Matn asosida tuzilgan moslikni topishga oid test savollarining bittasiga qisman to‘g‘ri javob bersa |
| 3 | Qo‘llash | 30 | 23-30 | So‘ralgan gap, so‘z yoki jumlanı ma‘no jihatidan to‘g‘ri tarjima qila olsa, xatolarsiz yozib bera olsa. |
| | | | 15-22 | So‘ralgan gap, so‘z yoki jumlanı ma‘no jihatidan qisman tarjima qila olsa, xatolarsiz yozib bera olsa. |
| | | | 8-14 | So‘ralgan gap, so‘z yoki jumlanı ma‘no jihatidan to‘g‘ri tarjima qila olsa |
| | | | 1-7 | So‘ralgan gap, so‘z yoki jumlanı ma‘no jihatidan qisman tarjima qila olsa. |

I VARIANT

San'at

San'at nima? San'at – bu go'zallik. Hamma go'zal narsalar ham san'at bo'laveradimi? Masalan, chiroyli atirgul, bulbulning xonishi, kamalak kabi tabiat hodisalari ham san'atmi?

San'at – bu qachonki, biror bir asar inson qo'li bilan yaratilsa va uni ko'rgan kishining qalbi larzaga kelsa, ana shu asar san'at darajasiga yetgan bo'ladi. Inson yaratilgan har qanday san'at asarining go'zalligidan zavq olishi, xayolga cho'mib qolishi, uning go'zalligiga sehrlanib qolishi – asarning haqiqiy san'at asari ekanligidan dalolat beradi.

San'atning turlari nihoyatda ko'p va xilma-xildir. **Tasviriy san'at, haykaltaroshlik, me'morchilik, teatr, kino, musiqa, raqs, dublyaj va badiiy adabiyot kabilar uning turlarini tashkil qiladi.** Ularning barchasida yuksak badiiy ta'sirchan obrazlar yaratish ko'zda tutilgan. Ammo ular ana shu yagona maqsadga turli-tuman yo'llar bilan erishadilar.

Shu san'atni yaratishda qo'llanadigan jismlarni san'at qurollari deymiz. Masalan, rassomchilik san'atining qurollari: molbert, palitra, bo'yoq, qalam, mo'yqalam va shu kabilar. **(131 ta so'z)**

TOPSHIRIQLAR:

1. “San'at turi → san'at qurollari → san'at arboblari va ularning shoh asarlari” yo'nalihsida matnda keltirilgan san'at turlaridan biri haqida ma'lumot yozing (30 ball)
2. 2.1 Berilgan hikmatli so'z va maqollarni moslashtiring(20 ball)

| | | | |
|---|--------------------------|----|--|
| 1 | San'atning bebaholigi | a) | yaxshilik va yomonlikni farqlovchi vosita |
| 2 | Ustoz – | b) | qadrini zargar biladi |
| 3 | Zar | d) | go'zallikda emas, balki go'zal amallardadir |
| 4 | San'at - | e) | san'atni yaratishda qo'llanadigan jismlar |
| | | f) | turli san'at yo'nalihslarida o'zligini topgan inson |

a) 1-b, 2-d, 3-e, 4-a b) 1-e, 2-d, 3-a, 4-b c) 1-d, 2-f, 3-b, 4-a

2.2 “San'at” so'ziga “Sinkveyn” metodi asosida tavsif bering (20 ball)

- Tushuncha nomi
 - Tushunchani tavsiflovchi 2 ta sifat
 - 3ta fe'l
 - 4 ta so'zdan iborat gap
 - mavzuning mohiyatini tavsiflovchi bitta so'z.
3. San'at turlari nomini ifodalovchi so'zlarni ona tilingizga tarjima qiling. (30 ball)

II VARIANT

Bunday qurilma orqali biz turli buyumlar, masalan, yelim idishlar, uyimizni bezatish uchun chiroyli bezaklar, dekorativ idishlar, guldonlar, haykalchalar, turli taqinchoqlar, aksessuarlar, laboratoriya ko'zoynaklari va shu kabi ko'plab buyumlarni o'zimiz xohlagan ko'rinishda yasash imkonini beradi.

3D printerlarning oddiy printerlardan farqi unda 3 o'lchamli obyektlarni bosish imkoniyatining mavjudligidir. Ushbu soha Xitoy, AQSH, Buyuk Britaniya, Niderlandiya kabi davlatlarda ayniqsa taraqqiy etgan. Yaqinda Xitoyda uzunligi 150 metr, kengligi 10 metr bo'lgan 3D printer yaratildi. Ushbu qurilma bir necha soat ichida balandligi 6 metr bo'lgan binoni "barpo qilishi" mumkin. Ushbu soha mamlakatimizda ham taraqqiy etib bormoqda. **Yurtdoshimiz Jonibek Tojiyevning 3D printeri orqali o'zi harakatlana oladigan robot yaratgani ham bunga dalil bo'la oladi.**

Bugungi kunda 3D printerlar nafaqat metall, plastmassa, balki qog'oz, keramika, oziq-ovqat va hatto tirik hujayralarni ham bosib chiqarish imkoniyatiga ega. 3D printer tomonidan bosib chiqarilgan uy, avtomobil, oziq-ovqat mahsulotlari va hatto odam organlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. (**145 ta so'z**)

TOPSHIRIQLAR:

1. Berilgan matnga sarlavha qo'ying. 3D printer yordamida nimalar yasash mumkin? Kelajakda keng ommalashishi mumkin bo'lgan texnologiyalarni bilasizmi? (30 ball)
2. 2.1 Matn mazmuniga mos keluvchi fikrlarning to'g'ri yoki noto'g'rilarini aniqlang (20 ball)

| | Ma'lumotlar | To'g'ri | Noto'g'ri |
|----|---|---------|-----------|
| 1. | AQShda uzunligi 150 metrli 3D printer yaratilgan | | |
| 2. | 3D printerlar orqali binolar, mashina va hatto oziq-ovqat mahsulotlarini ham "bosib chiqarish" mumkin | | |
| 3. | Bu printer taqinchoq, esdalik buyumlari yasash, uy qurish vazifasini ham bajaradi. | | |

| | | | |
|----|--|--|--|
| 4. | Xitoy, AQSH, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, O‘zbekiston 3D printer bo‘yicha amaliy natijalarga erishgan. | | |
| 5. | 3D printerlardan faqat matn va rasmlar chiqarishda foydalaniladi. | | |
| 6. | 3D printerlar faqat plastmassa va qog‘oz buyumlarni ishlab chiqara oladi. | | |

a) 1-noto‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-to‘g‘ri, 4- to‘g‘ri, 5- to‘g‘ri, 6- noto‘g‘ri

b) 1-noto‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-to‘g‘ri, 4- to‘g‘ri, 5- noto‘g‘ri, 6- noto‘g‘ri

c) 1-to‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-to‘g‘ri, 4- noto‘g‘ri, 5- to‘g‘ri, 6- to‘g‘ri

d) 1-to‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri, 4- to‘g‘ri, 5- noto‘g‘ri, 6- to‘g‘ri

2.2 Matn mazmunida ifodalanmagan fikrni aniqlang (20 ball)

a) 3D printerlar tirik hujayralarni ham bosib chiqara oladi

b) 3D printer yordamida o‘zi harakatlanadigan robot yaratgan shaxs o‘zbekistonlik

c) 3D printerlarning oddiy printerlardan farqi yo‘q

d) 6 metrli binoni chop etadigan printer Xitoyda chiqarilgan

3. Ajratib ko‘rsatilgan gapni ona tilingizga tarjima qiling. (30 ball)

III VARIANT

Internet

Internet bu – jahon kompyuter tarmoqlari majmuidir.

AQSHning ilmiy markazlaridan biri bo‘lgan “RAND Corporation” birinchi marta butun mamlakatni qamrab oladigan markazlashmagan kompyuter tarmog‘ini yaratishni taklif qiladi. 1964-yili 4 tarmoqdan iborat AQSHning eng nufuzli tekshirish institutlarida joylashgan ARPANET tarmog‘i yaratiladi. 1983-yilda ARPANET internet deb atala boshlandi. Shu tariqa internet tarmog‘iga asos solindi.

Internetning 1990-yillardagi rivojlanishiga asosiy sabab World Wide Web (Butun Dunyo Tarmog‘i)ning tuzilishi bo‘ldi. WWW serveri va tarmoqdagi kompyuterlarning aksariyati AQSHda joylashgan.

Internetning insoniyat uchun foydasi va imkoniyatlari kundan kunga oshib bormoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar rivojlangan bugungi kunimizda internet hayotimizning ajralmas bir qismi bo‘lib qoldi. Hozirda foydalanuvchilar internetga, asosan, ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o‘tkazish uchun kiradi. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanayotganda shaxsiy ma’lumotlarni kamroq joylashtirish kerak. Saytda ro‘yxatdan o‘tayotganda mavjud qoidalar bilan tanishish zarur. Shubhali havolalarni ochmaslik kerak. Chunki ular tarmoqdagi shaxsiy profillarga buzib

kiruvchi zararli dasturlar bo‘lishi mumkin. Shaxsiy elektron pochta manzillarini hech qachon hamma ko‘radigan joylarga – ijtimoiy tarmoq, saytlarga qo‘ymaslik kerak. Shubhali xatlarni ochmaslik, ularga javob bermaslik zarur. (**157 ta so‘z**)

TOPSHIRIQLAR:

1. Internet bizga nima uchun kerak? Qaysi ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanasiz? Saytda ro‘yxatdan o‘tayotganda qoidalar bilan tanishish zarurligining sabablarini izohlang. (30 ball)
2. 2.1 Moslashtiring.(20 ball)

| | |
|---------------------|---|
| 1. WWW | a) AQShdagi ilmiy markaz nomi |
| 2. Internet | b) Masofadan turib muloqot qilish qurilmasi |
| 3. RAND Corporation | c) Butun dunyo tarmog‘i d) Ijtimoiy tarmoqlar to‘plami e) Jahon kompyuter tarmoqlari majmui |

1. _____ 2. _____ 3._____

- 2.2 Matn mazmunida aks etgan to‘g‘ri ma’lumotni toping. (20 ball)

- a) “RAND Corporation” birinchi marta butun mamlakatni qamrab oladigan markazlashgan kompyuter tarmog‘ini yaratishni taklif qiladi.
- b) Internet dastlab ARPANET deb atalgan
- c) 1980-yilda ARPANET internet deb atala boshlandi.
- d) WWW serveri va tarmoqdagi kompyuterlarning aksariyati Angliyada joylashgan.
3. Ajratib ko‘rsatilgan gapni ona tilingizga tarjima qiling. (30 ball)

IV VARIANT

Yurt tinchligi beba ho ne'mat, ulug' saodatdir. Bashariyat o'z taraqqiyotining barcha bosqichlarida, avvalo, tinchlik-totuvlikka intilib kelgan. Yurt tinchligi – taraqqiyot garovi.

O'zbek xalqi tinchlikni yuksak qadrlaydi, o'z orzu-intilishlari maqsad-muddaolari ro'yobga chiqishining kafolati deb biladi. Lekin, afsuski, hayotda ezgu tilaklarning ijobat bo'lishiga doimo qarshilik qiladigan kuchlar ham bor. Ular o'zlarining g'arazli maqsadlari – nafs balosi yo'lida hamisha nizo-adovat, urush va qirg'inlar domiga tortib keladi. Bu urush va tinchlik, xavfsizlikni ta'minlash hanuzgacha insoniyat oldidagi eng olamshumul muammo bo'lib qolayotganidan dalolatdir. Tinch hayotimizda chegaralar mustahkamligi, chegaradosh mamlakatlardagi harbiy-siyosiy mojarolarning oldini olish katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston shimoli-sharqda Qozog'iston, sharqda va janubi sharqda Qirg'iziston hamda Tojikiston, g'arbda Turkmaniston, janubda esa Afg'oniston bilan chegaradosh.

Mamlakatimizda davlat sarhadlari va chegaralarini himoya qilishga qodir bo'lgan Milliy armiya tuzilgan.

Qurolli kuchlar safiga kirgan fuqarolar Vatanni himoya qilishni o'z vazifasi, majburiyati va burchi deb biladi. Davlatimiz tinchligi, chegaralarimiz xavfsizligi uchun himoyachilar doimo hushyor turadilar. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq biz yurt tinchligini eng asosiy boylik sifatida asrab kelmoqdamiz. **(151 ta so'z)**

TOPSHIRIQLAR:

1. Matnga sarlavha qo'ying. Chegaralarni mustahkamlash, xavfsizlikni ta'minlashning zarurligi sabablarini izohlang. (30 ball)
 2. 2.1 Quyidagi maqollarning qaysi biri matn mazmuniga mos (20 ball)
 - 1) Qo'shning tinch – sen tinch
 - 2) Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r – mingni
 - 3) Tinchlik bilan el ko'karar, yomg'ir bilan yer ko'karar
 - 4) Tinch yurtning bog'i gullaydi
 - 5) Sog' tanda sog'lom aql
 - a) 1,2,3
 - b) 1,3,4
 - c) 2,3,4
 - d) 3,4,5
 - 2.2 Matn mazmuniga mos to'g'ri ifodalangan gapni toping (20 ball)
 - a) Yurt tinchligi – taraqqiyot kushandas
 - b) O'zbekiston g'arbda Turkmaniston bilan chegaradosh
 - c) Yurtimiz oltita davlat bilan chegaradosh hisoblanadi

- d) Tinchlik tengi yo‘q ne’matdir.
3. Ajratib ko‘rsatilgan gapni ona tilingizga tarjima qiling. (30 ball)

V VARIANT

Kamoliddin Behzod - buyuk o‘zbek musavviri. U 1455-yilda Hirotda kambag‘al hunarmand oilasida tug‘ilib, yoshligida yetim qolgan. Behzodning musavvirlikdagi iste’dodini payqagan Mirak naqqosh uni o‘z tarbiyasiga olgan. Behzod musavvirlikni naqqosh Pir Said Ahmad Tabriziydan o‘rgandi. Musavvirlardan Shoh Muzaffar, Qosim Ali, Mavlono Hakim Muhammad kabi Behzod ham Alisher Navoiyning rahnamoligidan bahramand bo‘lgan. Ijodi 1470-yillarda boshlangan.

1520- yillarning boshida shoh Ismoil Behzodni Tabrizga chaqirtirib, katta imtiyoz berdi. Shoh Ismoil I dan keyin uning o‘g‘li Tahmos taxtga chiqdi. Behzod Tahmosga musavvirlikni o‘rgatadi. Lekin shoh Behzodning san’atini qadrlamaydi. Rassom ona yurti Hirotda qaytadi. Shayx Sa’diyning “Bo‘ston”iga ishlangan miniaturalari musavvirning ilk asarlaridir. 1488-yilda Sulton Husayn buyurtmasi bilan u 4 ta miniatURA ishlagan. Behzod asarida hayot manzaralarini jo‘shqin tasvirlaydi. Ilk asarlaridayoq Behzod mohir manzarachi rassom sifatida ko‘zga tashlanadi. Behzod ijodi o‘z davridayyoq rassomchilik maktabi bo‘lib qolgan. Darvesh Muhammad, Maqsud Muzahhib kabi rassomlar uning mакtabida ta’lim olganlar.

Buyuk musavvir Kamoliddin Behzod 1535-yilda Hirotda vafot etgan. (**152 ta so‘z**)

TOPSHIRIQLAR:

1. Matnga sarlavha qo‘ying. Buyuk musavvirning qaysi asarlari dunyoga mashhur? O‘zbek musavvirlaridan yana kimlarni bilasiz? (30 ball)
2. 2.1 Matn mazmunida aks etgan ma’lumotni aniqlang (20 ball)
 - a) Tahmos Behzodga musavvirlik sirlarini o‘rgatadi
 - b) Behzod musavvirlikni naqqoshdan o‘rgandi
 - c) Behzodning iste’dodini Pir Said Ahmad Tabriziy payqagan
 - d) Behzod ijodida tabiat manzarasi umuman uchramaydi
- 2.2 Matn mazmunida aks etmagan ma’lumotni aniqlang (20 ball)
 - a) Behzod o‘zi tug‘ilgan shahrida vafot etgan
 - b) XV asrda sultonning buyurtmasi bilan to‘rtta miniatURA ishlagan

- c) Behzod Alisher Navoiy bilan bir davrda yashagan
 - d) Mirak naqqosh Behzodning sevimli shogirdlaridan biri
3. *Hunarmand, iste'dod, musavvir, rahnamo, rassom, naqqosh* so'zlarini ona tilingizga tarjima qiling. (30 ball)

VI VARIANT

Abdurauf Fitrat

Abdurauf Fitrat - XX asr o'zbek adabiyoti, fani va madaniyatining yirik vakili, qomusiy olim, o'tkir tilshunos, betakror dramaturg va shoir, jurnalist, davlat va jamoat arbobi.

Abdurauf Fitrat 1886-yilda Buxoroda tug'ilgan. Aytishlaricha, uning otasi Abdurahimboy o'z davrining ziyoli kishilaridan bo'lgan. U savdo bilan shug'ullaniganligi bois chet ellarga ko'p chiqar, dunyo ahvoldidan boxabar, o'qimishli va taniqli odam edi. Onasi Mustafbibi ham badiiy zavqi baland, zukko, o'qimishli ayol bo'lgan.

Abdurauf ilk tahsilni Buxoro maktablarida olganidan so'ng, mashhur Mir Arab madrasasida o'gigan. Talabalik yillarida, taxminan 18-19 yoshlarida otasi bilan haj ziyoratiga borgan, qariyb bir yilga yaqin davom etgan bu ziyorat safarida Eron, Turkiya, Suriya va Saudiya Arabistonida bo'lgan. Avvalo, safar chog'ida ular shu davlatlarda istiqomat qiluvchi xalqlarning turmush tarzi va madaniyati bilan tanishganlar.

Demak, Fitrat fors va o'zbek tillarini mukammal bilib olgan edi. Ayniqsa, u arab tilini qunt bilan chuqur o'rgandi. Fitrat birinchi o'zbek professori hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida Fitratga Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti va "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni berilgan. (**156 ta so'z**)

TOPSHIRIQLAR:

1. Abdurauf Fitrat jadid harakatining a'zosi hisoblanadimi? Jadidlar kimlar?
Jadidchilik harakati a'zolaridan yana kimlarni bilasiz? (30 ball)
2. 2.1 Fitrat haqidagi fikrlarning to'g'ri yoki noto'g'rilarini aniqlang(20 ball)

| | Ma'lumotlar | To'g'ri | Noto'g'ri |
|----|--|---------|-----------|
| 1. | Haj ziyoratini ota-onasi bilan birga amalga oshirgan | | |
| 2. | Fitrat 3 ta tilni bilgan | | |
| 3. | Fitrat tilshunos, dramaturg, jamoat arbobidir | | |
| a) | 1-noto'g'ri, 2-noto'g'ri, 3-to'g'ri | | |
| b) | 1-noto'g'ri, 2-to'g'ri, 3-to'g'ri | | |

- d) 1-to‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-to‘g‘ri
- e) 1-to‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri
- 2.2 Matn mazmunida aks etgan ma’lumotni aniqlang (20 ball)
- Fitratga “Buyuk xizmatlari uchun” medali tirikligida berilgan
 - Fitrat savdogar oilasida tug‘ilgan
 - Fitrat faqat o‘zbek tilini mukammal bilgan
 - Fitratning onasi juda ko‘p davlatlarga sayohatga borgan
3. Ma’rifatparvar ijodkorning onasi qanday ayol bo‘lgan? Adibning onasi haqida yozilgan jumlanı ona tilingizga tarjima qiling. (30 ball)

VII VARIANT

Dronlar haqida qiziqarli faktlar

Dron – uchuvchisiz uchish vositasi. Birinchi dronlar 1800-yillarning o‘rtalarida avstriyaliklar tomonidan yaratilgan.

Hozirgi kunda texnologiyalar kundan kunga rivojlanib bormoqda. Bugungi kun dronlari mo‘ljalni uzoq muddat kuzatib yurish va nishonga aniq ura olish salohiyatiga ega. **Yaponiya va AQSH dehqon xo‘jaligida, avtoturargohlarda mashinalar sonini sanashda, balandlikdan suratga olishda dronlardan foydalanildi.**

Bugungi kunda pochtachi dronlar ham mavjud bo‘lib, ular havoda ikki soatdan ortiq harakatlana oladi.

Siktivkar shahrida “Dodo Pissa” kompaniyasi o‘z pitsalarini mijozlariga dronlar yordamida yetkazib berishni yo‘lga qo‘ydi. Xaridor internet orqali buyurtma berishi mumkin. Pitsani havo orqali qabul qilish uchun mijoz telefon orqali buyurtma berishi kerak. Pitsa belgilangan manzilga yetkazilishi bilan menejer mijozga tashqariga chiqish va buyurtmani olish zarurligi haqida xabar beradi. Kopter to‘lov cheki bilan birga pitsa qutisini pastga tushiradi. Qurilmaga kuzatuv kamerasi o‘rnatilgan bo‘lib, u operatorga mijozning qachon ko‘chaga chiqqanini ko‘rish imkonini beradi.

Delft universiteti talabalaridan biri og‘irligi atigi 4 kg bo‘lgan, soatiga 100 km tezlikda ucha oladigan “mo‘jiza mashinası”ni yaratdi. Asosiy maqsad – o‘z vaqtida birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish. (**158 ta so‘z**)

TOPSHIRIQLAR:

1. Dron nima, ular qanday boshqariladi? Dronlarning qanday turlarini bilasiz? (30 ball)
2. 2.1 Matn mazmunida aks etgan ma’lumotlar asosida moslashtiring (20 ball)

| | | | |
|---|-------------------|----|--|
| 1 | Pochtachi dronlar | a) | pitsani dron orqali yetkazib berish yo‘lga qo‘yilgan |
|---|-------------------|----|--|

| | | | |
|---|----------------------------|----|--|
| 2 | Delft univesiteti talabasi | b) | havoda ikki soatdan ortiq harakatlana oladi |
| 3 | Siktivkar shahrida | d) | avstralaliyaliklar tomonidan yaratilgan |
| 4 | Birinchi dronlar | e) | birinchi tibbiy yordam ko'rsatuvchi dronni yaratdi |

- a) 1-a, 2-e, 3-d, 4-b c) 1-d, 2-a, 3-d, 4-e
b) 1-b, 2-e, 3-a, 4-d d) 1-e, 2-b, 3-a, 4-d

2.2 Berilgan ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'riliagini aniqlang (20 ball)

| | Ma'lumotlar | To'g'ri | Noto'g'ri |
|----|--|---------|-----------|
| 1. | Kino sanoatida dronlardan videografiya maqsadida foydalaniadi. | | |
| 2. | Dronlardan yetkazib berish xizmatlarida foydalanimaydi | | |
| 3. | Texnologik jihatdan dron bu – uchuvchisiz uchish apparatidir | | |

- a) 1-noto'g'ri, 2-noto'g'ri, 3-to'g'ri
b) 1-noto'g'ri, 2-to'g'ri, 3-to'g'ri
c) 1-to'g'ri, 2-noto'g'ri, 3-to'g'ri
d) 1-to'g'ri, 2-to'g'ri, 3-noto'g'ri

3. Ajratib ko'rsatilgan gapni ona tilingizga tarjima qiling. (30 ball)

VIII VARIANT

IT-kelajak sohasi

Bugungi kunda turli sohalarda axborot texnologiyalaridan foydalanish tobora kengayib bormoqda, shu tufayli IT talab yuqori bo'lgan va ustuvor sohalardan biriga aylanmoqda. Keng tarmoqli IT sohasidagi ba'zi kasblarni ko'rib chiqamiz.

Web-dasturchi. Internet resurslarini ishlab chiqishga web-dasturchi javobgardir. Bu internet-marketingning asosiy shaxslaridan biri bo'lib, uning bilim va ko'nikmalarisiz loyiha yaratuvchilarining g'oyalarini amalga oshirish mumkin emas.

SEO-mutaxassis. SEO-mutaxassis web-saytni Google, Yandex kabi qidiruv tizimlarida targ'ib qilish maqsadida uni optimallashtirish uchun javobgardir.

SMM mutaxassis – uning assosiy vazifasi ijtimoiy tarmoqlardan mijozlarni mahsulot va xizmatlarga jalb etish. SMM mutaxassis kompaniya ijtimoiy tarmoqlarining sahifasini rivojlantirish bilan shug‘ullanadi. Shuningdek, u ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari bilan faol aloqada bo‘lishga javobgardir.

Kopirayter. Bu kontent menejeri bilan birgalikda ishlaydigan matn muallifi. Shu bilan birga, kopirayter imlo qoidalariiga rioya qilgan holda bexato yozishi kerak.

Web-tahlilchi. Internet saytga tashrif buyuruvchilarning hatti-harakatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘playdi va tahlil qiladi. Asosan ushbu mutaxassis SEO mutaxassis va sayt egasi manfaati uchun ishlaydigan boshqa guruh a’zolari harakatlarining sifatini baholaydi.

Web-dizayner. Ichki jozibadorlik uchun mas’ul bo‘lgan internet-loyihha rassomi. Uning vazifasi internet loyihaga ko‘proq foydalanuvchilarni qiziqtirishdir. **(165 ta so‘z)**

TOPSHIRIQLAR:

1. Axborot texnologiyalari nima? Matn mazmunini olib beruvchi 5ta savol tuzing. (30 ball)
2. 2.1 Matn mazmunida aks etgan ma’lumotlar asosida moslashtiring (20 ball)

| | | | |
|---|----------------|----|---|
| 1 | Web dizayner | a) | orfografik qoidalarga rioya qilgan holda bexato yozishadigan matn muallifi |
| 2 | Kopirayter | b) | internet-marketingning asosiy shaxslaridan biri |
| 3 | SMM mutaxassis | d) | mijozlarni mahsulot va xizmatlarga jalb qilish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarni yurituvchi |
| 4 | Web dasturchi | e) | internet saytga tashrif buyuruvchilarning hatti-harakatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘playdi |
| | | f) | loyihaga foydalanuvchilarni qiziqtiruvchi rassom |

- c) 1-a, 2-d, 3-f, 4-b c) 1-f, 2-a, 3-d, 4-b
 d) 1-b, 2-f, 3-a, 4-d d) 1-d, 2-b, 3-a, 4-f

2.2 Matn mazmuniga mos to‘g‘ri ifodalangan gapni toping (20 ball)

- a) Dasturning ichki qismini ishlab chiqish bilan kopirayter shug‘ullanadi
 b) Internet resurslarini ishlab chiqishga Web-dizayner mas’ul

- c) Web tahlilchi kompaniya ijtimoiy tarmoqlarining sahifasini rivojlantirish bilan shug‘ullanadi
 - d) SEO-mutaxassis web-saytni qidiruv tizimlarida targ‘ib qilish uchun javobgar
3. *Kelajak, dasturchi, mutaxassis, ijtimoiy, manfaat, loyiha, foydalanuvchi so‘zlarini ona tilingizga tarjima qiling.* (30 ball)

IX VARIANT

Kelajak kasblari

Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, shu bilan birga, ba’zi kasblar eskirib, o‘z dolzarbligini yo‘qotib bormoqda. **Bunday vaziyatda doimo o‘z ustingizda ishlash ko‘nikmasini shakllantirishingiz, izlanishingiz va professional faoliyatning turli sohalari bo‘yicha zamonaviy bilimlar, tanqidiy va kreativ fikrlay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishingiz lozim.** Quyida kelajakda dolzarb va talab yuqori bo‘ladigan kasblar hamda ularning afzalliklari bilan tanishamiz.

Dasturchi va axborot texnologiyalari mutaxassis. Kompyuter dasturchnining vazifasi dasturlarni ishlab chiqish yoki uni yanada takomillashtirishdir. Hozirgi zamonda hech bir kasb axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasini chetlab o‘tolmaydi.

3D-dizayner. 3D printerlardan foydalanish uchun malakali 3D-dizaynerlarning alohida o‘rni bor. Ularga arxitektura va qurilish, sanoatning turli yo‘nalishlari, sog‘liqni saqlash, kompyuter o‘yinlari va kinoindustriyada talab yuqori.

Kontent-menejer – media va reklama bo‘yicha mutaxassis. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari bilan bir qatorda jarangdor va ta’sirchan matnlar yoza oladigan, kopirayterlik, tahrir va dizaynerlik ko‘nikmalarini o‘zida jamlagan mutaxassis nafaqat reklama, balki media va ko‘ngilochar sohalarda ham kerak. Ko‘p sohalarda texnologiyalar insonning noyob ijodiy mahsuli va kreativ fikrlash darajasiga yetgani yo‘q.

Brend menejer: Bu kasb egalarining asosiy vazifasi mahsulot imidjini yaratish, har bir savdo markasini jozibali va talabga javob beradigan qilishdir.

(176 ta so‘z)

TOPSHIRIQLAR:

1. Matnda sanab o‘tilgan kasb egalariga bo‘lgan talab nima sababdan yuqori? Bugungi kunda talab yuqori bo‘lgan yana qanday kasblarni bilasiz? Tanqidiy va kreativ firklash so‘zlarining ma’nosini izohlang. (30 ball)

2. 2.1 Matn mazmunida aks etgan ma'lumotlar asosida moslashtiring (20 ball)

| | | | |
|---|--|----|-----------------|
| 1 | Mahsulot imijini yaratadi. | a) | 3D dizayner |
| 2 | Arxitektura, qurilish, sog'liqni saqlash sohalarida talab yuqori. | b) | dasturchi |
| 3 | Matnlarni to'g'ri yoza oladigan mutaxassis. Unga, ayniqsa, reklama sohasida ehtiyoj katta. | d) | kontent menejer |
| 4 | Kompyuter dasturlash sohasining mutaxassisi. | e) | brend menejer |

1_____ 2_____ 3_____ 4_____

2.2 Menejer kim? (20 ball)

- a) mutaxassis
- b) ish boshqaruvchi
- c) quruvchi
- d) dasturlovchi

3. Ajratib ko'rsatilgan gapni ona tilingizga tarjima qiling. (30 ball)

X VARIANT

Sun'iy intellekt nima?

“YouTube”ga kirsangiz, tarmoq sizning qiziqishlaringizga qarab turli videolarini taklif qila boshlaydi. Masalan, siz robot va kompyuterlarga qiziqsangiz, “YouTube” ham shu mavzularga oid videoroliklarini ko'rsatadi. Qanday qilib? Axir, “YouTube”ning bir xodimi, faqat sizning qiziqishlaringiz bilan band bo‘lmaydi- ku? Ha, aslida bu - aqli kompyuter. Uning sun'iy intellekti bor. U sizni kuzatib boradi! Internetda nimalarni izlaganingiz, nimalarni ko‘rganingizga qarab, qiziqishlaringizni aniqlab oladi. Siz internetdan qancha ko‘p foydalansangiz, aqli kompyuter ham sizni yaxshiroq tanib oladi.

Ko‘pchilik sun'iy intellekt deganda insonlarga o‘xshab fikrlovchi narsani tasavvur qiladi. Ammo sun'iy intellekt biznikiday haqiqiy ongga ega emas. U oddiy dastur xolos. Faqat u shunday yaratilganki, o‘z vazifalarini bajarish yo‘llarini o‘zi mustaqil o‘rganadi va xatolardan xulosa chiqara oladi. Shu tariqa, sun'iy intellekt borgan sari yaxshilanib, bilimlarini ko‘paytirib boradi. Buning uchun insonning ko‘magi deyarli kerak emas.

Hozir sun’iy intellekt deyarli har bir qurilmada bor. Telefoningizda, kir yuvish mashinasida va muzlatkichda. Sun’iy intellektli avtomobillar haydovchisiz ham yurib ketmoqda. **Xullas, sun’iy intellekt hayotimizning ajralmas qismiga aylanmoqda.** Balki, kelgusida sun’iy intellekt bir necha kasblarning yo‘q bo‘lib ketishiga sababchi bo‘lar. Ammo sun’iy intellekt yaratuvchisi, sun’iy intellekt ta’mirlovchisi kabi yangi kasblar paydo bo‘lish ham tabiiy. (**181 ta so‘z**)

TOPSHIRIQLAR:

1. Sun’iy intellektning ijobjiy va salbiy tomonlarini yozing. Kelajakda qanday kasblar yo‘qolib ketishi mumkin? Qaysi kasblarning o‘rnini sun’iy intellekt bosa olmaydi, nima uchun? (30 ball)
2. 2.1 Fikrlarni davom ettiring
Sun’iy intellekt insonlar kabi fikrlay olmaydi, chunki.....
Sun’iy intellekt rivojlanishi bilan bir qancha kasblar yo‘qolib ketishi mumkin, chunki..... (20 ball)
- 2.2 Berilgan fikrlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘rilari aniqlang (20 ball)

| | Ma’lumotlar | To‘g‘ri | Noto‘g‘ri |
|----|---|---------|-----------|
| 1. | “You-tube” ning bir xodimi doimiy ravishda bizning qiziqishlarimiz bilan band bo‘ladi | | |
| 2. | Avtomobillar sun’iy intellekt orqali boshqarilishi mumkin | | |
| 3. | Ayrim kasblar yo‘qolib ketishi aniq | | |
| 4. | Sun’iy intellekt insonlardek ongli | | |

- a) 1-noto‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-to‘g‘ri, 4- noto‘g‘ri
- b) 1-noto‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-to‘g‘ri, 4-noto‘g‘ri
- c) 1-to‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-to‘g‘ri, 4- noto‘g‘ri
- d) 1-to‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri, 4- noto‘g‘ri
3. Ajratib ko‘rsatilgan gapni ona tilingizga tarjima qiling. (30 ball)